



TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Turaboyeva Feruza Qo'shmat qizi

FarDU talabasi

Sherqo'ziyeva Zarnigor Farhodjon qizi

FarDU talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 08-June 2023 yil

Ma'qullandi: 10-June 2023 yil

Nashr qilindi: 14-June 2023 yil

KEY WORDS

Oila, fikr, tanqid, hayot, talabalar hayoti, pedagog, qadr-qimmat, kelajak avlod, farzand tarbiyasi, mahalla, o'quv yurti, jamoat.

ABSTRACT

Mazkur maqolada biz talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash pedagogik muammo sifatida mavzusida o'z shaxsiy mulohazalarimizni bayon qilamiz va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilamiz.

Mustaqillikka qadar oilaviy hayotga tayyorlash muammosiga etarli e'tibor berilmay, maktab, oliy o'quv yurtlari o'quv rejalarida o'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, kelajakda o'zlari ota-ona sifatida farzand tarbiyalashlari, oilada sog'lom psixologik muhit yaratish, sog'lom turmush tarzini barpo etish kabi juda ko'p masalalar monografiyachilarning nazarlaridan chetga qolgan. Yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash muammosiga Respublikamizda mustaqillik yillaridagina har tomonlama e'tibor berilib, bunga oila bilan bir qatorda maktab, mahalla, o'quv yurtlari, jamoat tashkilotlari tomonidan har bir fuqaroning mas'ulligiga e'tibor qaratildi va oila muammosiga davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Ma'lumki, sog'lom oilaning asoslariga oilada er-xotinning o'zaro munosabati, ularning farzandlariga, farzandlarining ota-onalari, aka-uka, opa-singil va boshqa qarindoshlari, jamiyatga nisbatan burch va mas'uliyatlari kiradi. Har bir pedagog yoshlar tarbiyasining naqadar murakkabligi va mas'uliyatli ekanligini his etmoqda. Shuning uchun ularni tarbiyalashda ta'limiy qadriyatlar va boy ma'naviy meroslarimizdan foydalanish zaruriyatini davr taqozo etmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar va o'tkazilgan anketa so'rovlari natijasida hozirgi kunda ota-onalar o'z farzandlarini quyidagi yo'llar bilan tarbiyalashga harakat qilayotganliklari aniqlandi: - ibrat bo'la oladigan shaxslar namunasida tarbiyalash uchun ularga biriktirib qo'yish; - donolar fikrlari, o'g'itlari, asarlarini o'rganishga da'vat etib, kundalik hayotda ularni qo'llashga o'rgatish orqali; - jamiyat hayotida ro'y berayotgan voqealar, insonlar xatti-harakatlarini kuzatib, tegishli xulosalar chiqarish orqali; - insonning o'zini tutishini o'rganish, uni qiyoslash, taqqoslash va xulosa chiqarishga o'rgatish orqali. Ushbu tarbiyalash ta'sirida bo'lgan yoshlar jamiyat hurmatiga sazovor bo'lishi, o'z vataniga foyda keltirishi mumkin. Bugungi kun talabi ham inson bolasi eng qudratli kuchga - o'z tafakkuriga ega bo'lishi lozimligi ko'rsatmoqda.

G'. B. Shoumarov oilaning kommunikativ vazifalari haqida fikr yuritar ekan, bolalarning

ota-onalari bilan bo'lgan muomalalari ularning aqliy saviyasi, hissiy-emotsional holatining to'g'ri shakllanishi uchun nihoyatda zarurligi, ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta'sirini alohida qayd etadi va bunda televideniya, radio, matbuotning o'rnini ham ko'rsatib o'tadi. Shu bilan birga u oilada bo'sh vaqtdan samarali foydalanish, dam olishni to'g'ri tashkil etishda bolalarning sport bilan shug'ullanish malakasini oshirish, ijodiy rejalarini ro'yobga chiqarish, oilaning iqtisodiy-xo'jalik muammolarini hal etish, mamlakat bo'ylab sayohatlarga chiqish, san'at, badiiy adabiyot bilan oshno bo'lishga o'rgatish zarurligini, oila qurish arafasida turgan yoshlar bu mezonlardan xabardor bo'lishlarini alohida ta'kidlaydi.

A. Q. Munavvarov oila pedagogikasiga doir monografiyalarida o'zbek oilalarida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-ruhiy holati hamda tarbiya imkoniyatlari, ota-onalarga pedagogik bilim berish masalalariga to'xtalib, ota-onalar farzand tarbiyasida ana shu jihatlarga e'tibor berish masalalariga to'xtalib, ota-onalar farzand tarbiyasida ana shu jihatlarga e'tibor berib o'tishlari kerakligini milliy qadriyatlar hamda milliy o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda tahlil etadi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda, oila mustahkamligini ta'minlashda ularning ota-onalari saviyasi, turmush tarzi, xarakter xususiyatlari va nihoyat, kasb faoliyatlariga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir, deydi olim va barcha oilaviy ishlarni bajarishda teng huquqlilik yo'nalishi ko'proq namoyon bo'layotganini ta'kidlaydi. Olim kam yoki ko'p bolali oilalarda bola tarbiyasi maktab, oila hamkorligi, ota-onalarga pedagogik bilim berish, tarbiyada milliy urf-odatlarimiz hamda an'analarimizga tayanish muammolariga, oila va maktabda o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy faolliklarini ta'minlashga bog'liq ekaniga diqqatni qaratadiki, bularning barchasi yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash muaamosiga ham taalluqlidir. Zero, O'rta Osiyoda qadimdan oila boshliqlari farzandlarini uylashtirishlari, uyli-joyli qilishlari kabi an'analar avloddan avlodga o'tib, har bir yoshning ruhiyatiga singib ketgan.

Olim monografiyalari asosida insonni oilaviy hayotga tayyorlashning tarbiyaviy uslublari, ko'rinishlari haqida ma'lum xulosaga kelar ekan, uy xo'jaligini boshqarishni o'rganish, jinsiy tarbiya, ota-onalarga pedagogik bilim berish, umuman, ularni axloqiy jihatdan mukammal inson qilib tarbiyalashni asosiy yo'nalishlarning mazmunida insonning o'z oilasiga bo'lgan mas'uliyati, faolligi, oilaviy burchini chuqur his etishini ta'kidlaydi. M.R.Bo'riyeva esa oila va uning turlari, demografik taraqqiyot masalalarini tadqiq etar ekan, ayniqsa oila shakllanishining ijtimoiy-demografik omillari borasida muhim ma'lumotlar beradi. Bunday ma'lumotlar hozirgi davrda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qimmatlidir. Chunonchi, keyingi yillarda yosh oilalarning[ularning aksariyati yosh turmush qurgan oilalardir] ajralib ketish holati yuz bermoqda. Buning sababini olim quyidagicha izohlaydi:

1. Yigit-qizlarning erta, mustaqil hayotga ruhan tayyor bo'lmay turib, ya'ni qizlar 16-17, yigitlar 18-19 yoshda, hali biror hunar yoki kasb-korga, oila tebratish malakasiga ega bo'lmay turib oila qurishlari, ota-ona, akalarga qaram bo'lish ham iqtisodiy, ham ma'naviy jihatdan kelishmovchiliklarga sabab bo'ladi va ajralishlarga olib keladi.

2. Iqtisodiy jihatdan oilalarda yuz bergan muammolar natijasida ajralib ketishlar sodir bo'ladi.

3. Yigitlarning nashavandlik, giyohvandlik, spirtli ichimliklar ichishga ruju quyishlari, ishsizlik, xiyonat kabilarga berilganliklari oilaning barqarorligiga salbiy ta'sir etib, ajralishlar sodir bo'lishiga olib kelmoqda.

Lekin mustaqillik sharofati bilan Respublikamizda oila masalasining davlat siyosati

darajasiga ko'tarilishi, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizning tiklanishi yoshlar o'rtasida keng targ'ib etilishi, oilaviy hayotga tayyorlashga oid ilmiy-amaliy ishlarga e'tibor berila boshlanganligi bu boradagi muammoning astasekin hal etilayotganligini ko'rsatmoqda.

Ta'limiy qadriyatlar jamiyatda kechayotgan ijtimoiy o'zgarishlar asosida yuzaga keladi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ta'limiy islohotlar malakali kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan qayta shakllantirishni taqozo yetadi. Ayni vaqtda ta'lim jarayonini tashkil etish, mutaxassislarning chukur kasbiy bilim va malakaga yega bo'lishlarini ta'minlovchi ilg'or, texnologik xarakterdagi yondashuv qaror topdi. Yoshlarda bilim o'rganish hamda muayyan kasb yoki hunar sirlarini uzlashtirishga nisbatan ijobiy munosabat shakllandi. Ta'limiy qadriyat – ta'limning milliy yo'nalganligi, uning milliy tarix bilan uyg'unligi, O'zbekiston xalqlari madaniyatini asrash va boyitish, ta'limning milliy rivojlanishning muhim vositasi ekani, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatini hurmat qilishdan ibortadir. Pedagogik ta'limni munosabatlar madaniyati bilan boyitish zarur.

Ta'limning tashkil etilishi va mazmunida o'quvchi va o'qituvchi o'zaro munosabatlariga – moyili asos qilib olinishi kerak. O'qituvchi o'quvchini ma'naviy himoya qilishi, turli salbiy hodisalardan asrashi borasidagi zarur ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadga muvofiq (maxsus usul va tarbiyaviy texnologiyalar talab etuvchi pedagogik himoyalash). Jamiyatning ma'naviy yangilanishi kasb-hunar va hayotiy yo'lini tanlash kabi ta'lim qadriyatini vujudga keltiradi. Bu yerda ta'limning haqiqiy sharoitlarida qadriyatlarni taxmin qilish, asoslash va bularning hammasini ijtimoiy kontekstda turli hal etish muhimdir. Ta'limiy qadriyatlardan yana biri-shaxsni ijtimoiylashtirish va uning ijtimoiy – madaniy qadriyatlarini qayta tiklab, ijodiy faoliyatini tashkil etish, shuningdek, o'quv yurti, jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashdan iborat. Bu qadriyatlar zamonaviy shaxsni shakllantirish maqsadiga qaratilgan jarayon orqali rivojlanib, yangi ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishida asos bo'lib xizmat kiladi. Yangi ijtimoiy qadriyatlar ta'limiy dasturdarni yaratish yoki amaldagilarini takomillashtirish, xalkning boy intellektual, ma'naviy - axloqiy merosi, umuminsoniy qadriyatlari, fan va texnika, texnologiya va madaniyatning ilg'or yutuqlari asosida pedagogik va axborot texnologiyalarini yaratish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ikki bosqichli oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura) o'qitish, mustakil ta'lim olish, masofadan o'qitish tizimini individuallashtirishni, ta'limning insonparvarlikka yo'nalganligini ta'minlashni ko'zda tutadi. Ta'limni rivojlantirish tizimining yangi yo'li – bu xalkning boy, o'ziga xos madaniy – tarixiy an'analariga, umuminsoniy qadriyatlarga, milliy va jahon pedagogika fani yutuqlariga, ma'naviy va madaniy qadriyatlariga murojat etishdir. Zamonaviy ta'lim - bu shaxsning ijtimoiy, shuningdek, ta'limiy qadriyatlarga ongli munosabatda bo'lishi, kasbiy, ijodiy, ma'naviy – axloqiy va shaxsning jismoniy imkoniyatlarini shakllantirishga qaratilgan «innovation» ta'limdir. Shuning uchun ham bunday sharoitda oliy o'quv yurtlarida ham yoshlarning ijtimoiy harakatiga ko'proq e'tibor berish kerak. Chunki bugungi talaba ertaga oila rahbari yoki uning a'zosi bo'ladi. Bugungi kunda talabalarni ta'limiy qadriyatlarga o'rgatish orqali o'sibulg'ayib kelayotgan yosh avlodni ma'nan yetuk barkamol shaxs qilib tarbiyalash yo'lga qo'yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOIK ASOSLARI. Science and innovation, 1(B3), 40-46.
2. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O 'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TARIXI MASALALARI.

Journal of new century innovations, 14(3), 33-36.

3. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O'QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Journal of new century innovations, 4(1), 52-59.

4. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOIIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. PEDAGOGS jurnali, 18(1), 220-225.

5. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(7).

6. Tojimamatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.

7. Egamberdiyev, O., Kholdarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES.

8. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 162-165.

9. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 166-169.

10. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 158-161.

11. Oyattillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 63-65.

12. Oyattillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 63-65.

13. Iqboljon O'g'li, T. J., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON. PEDAGOGS jurnali, 9(3), 4-7.

14. Alisher o'g'li, E. O. (2022). Issues of Retraining and Professional Development of Pedagogical Personnel. The Peerian Journal, 5, 192-194.

15. Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 1157-1161.

16. Alisher o'g'li, E. O., & Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). The Role of Psychology in the Treatment of Heart Failure in Humans. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 5, 500-502.

17. Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 59-60.

18. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOIIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. PEDAGOGS jurnali, 18(1), 220-225.

19. Yusufovich, A. A. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Science and Innovation, 1(4), 136-138.
20. Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). PROFESSIONALISM AS A GENERALIZED TYPICAL MODEL OF A PROFESSIONAL IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. Journal of new century innovations, 11(1), 186-189.

